

UDK:632

**POLIZ EKINLARINING AHAMIYATI VA ZARARKUNANDA
HASHAROTLARNING HOSILDORLIKKA ZARARI**

Xolmurodov Abduxoliq Avazovich

mustaqil tadqiqotchi

<https://orcid.org/0009-0001-6989-9996>

Toshkent Davlat Agrar Universiteti

Annotatsiya: Maqolada poliz ekinlarining ahamiyati va ushbu ekinda uchraydigan zararkunandalar, tur tarkibi, tarqalishi hamda poliz ekinlarining asosiy zararkunandalarining zarari va bioekalogiyasi haqida malumotlar keltirilgan.

Kalit soʻzlar: Poliz ekinlari, zararkunanda, kemiruvchi, soʻruvchi.

Kirish. Maʼlumki qishloq hoʻjalik ekinlari hosili salmogʻi va sifatiga bir qator zararkunandalar, hasharotlar, kasalliklar va begona oʻtlar salbiy taʼsir koʻrsatadi. Zararkunandalarga qarshi kurashishning bir necha usullari ishlab chiqilgan. Oʻzbekistonda koʻpgina dala ekinlari qatori poliz ekinlariga ham koʻplab turli xil kemiruvchi va soʻruvchi zararkunandalar zarar yetkazadi. Ulardan qariyb 15 ga yaqin turi bodring, qovun, tarvuzga jiddiy zarar yetkazadi. Kemiruvchi zararkunandalardan tunlamlar, gʻovak xosil qiluvchi pashshalar va ildiz kemiruvchi tunlamlar, qovun pashshasi, poliz qoʻngʻizi, soʻruvchilardan oʻsimlik bitlari, kanalar, oqqanot kabi zararkunandalar poliz ekinlarida jiddiy zarar yetkazadi. Oʻzbekistonning tabiiy-iqlim sharoiti ekinzorlarda koʻplab zararkunandalarning rivojlanishi va tarqalishiga imkon

yaratadi. O'zbekistonda ko'pgina dala ekinlari qatori poliz ekinlariga ham ko'plab turli xil kemiruvchi va so'ruvchi zararkunandalar zarar yetkazadi. Ulardan qariyb 10 ga yaqin turi qavunga va 5 ga yaqin turi bodringga jiddiy zarar yetkazadi. So'ruvchilardan o'simlik bitlari, kanalar, oqqanot kabi zararkunandalar poliz ekinlariga jiddiy zarar yetkazadi.

Polizchilik qishloq xo'jaligining qovun, tarvuz, qovoq yetishtiriladigan tarmog'i sanaladi. Respublikamizda poliz mahsulotlari yetishtirishni yanada ko'paytirish, sifatini yaxshilash va uning nobudgarchiligini kamaytirish hisobiga aholini shu maxsulotlarga bo'lgan talabini qondirish ko'zda tutilgan. Aholi jon boshiga yetarli miqdorda qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish va iste'mol qilish bo'yicha eng rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqish respublikada olib borilayotgan agrar siyosatning negizi hisoblanadi.

O'zbekistonda qishloq xo'jalik ekinlari orasida poliz ekinlari muhim ahamiyat kasb etadi. Salomatlik va gigiena sohasi olimlarning hisoblariga qaraganda jon boshiga har yili 25-35 kg dan poliz mahsulotlari iste'mol qilinishi lozim ekan. Aholi jon boshiga yil davomida poliz mahsulotlarini ishlab chiqarish esa hozirgi kunda 15-18 kg ni tashkil etmoqda. Bu tavsiya etilgan oqilona me'yordan 10-17 kg kam demakdir.

O'zbekiston Respublikasida nafaqat poliz ekiladigan maydonlar hajmini, balki ularning hosildorligini muttasil oshirib borish lozim va bu borada issiqxona va ochiq maydonlarda poliz ekinlarini yetishtirishga alohida e'tibor berish talab etiladi. Hosildorlikni oshirishning asosiy omillaridan biri - bu serhosil, turli kasallik, hasharotlar, ekstrimal sharoitga chidamli navlar urug'larini tanlab eqish va ekinlarni yuqori texnologiya asosida parvarishlashdir. Shu bilan birga zararkunandalarga qarshi o'z vaqtida kurash olib borish ham yetishtirilayotgan hosilni saqlab qolish imkonini beradi. Poliz ekinlarini bir necha turdagi zararkunandalar hosil miqdorini kamaytirib, uning sifatini buzmoqda. Bunday zararkunandalarga o'rgimchakkana, poliz

qo'ng'izi, oqqanot va poliz bitlari, kuzgi tunlam, karadrina, tamaki tripsi, g'ovak hosil qiluvchi pashshalar va nematodalar kabi zararkunandalarni misol qilishimiz mumkin. Poliz ekinlarida zarar keltiradigan hasharot turlarini ularning oziqlanish usuliga qarab ikkiga bo'lish mumkin.

Birinchisi so'ruvchi zararkunandalar. Bular o'simlik shirasini so'rib, uni rivojlanishdan ortda qoldiradi va hosildorlikni pasaytirib, sifatini buzadi. O'simliklarda har xil yuqumli kasalliklar (ayniqsa virusli) tarqalishiga sababchi bo'ladi. Ayrim hasharotlarning shirali chiqindilari (o'simlik bitlari va oqqanot) o'simlikni bargi va boshqa qismlarni ifloslantirishi tufayli saprofit zamburug'larning rivojlanishi uchun qulay muhit yaratib, fotosintez jarayonini izdan chiqaradi.

Ikkinchisi kemiruvchi zararkunandalar. Bular tunlam, qo'ng'iz va pashshalar bo'lib poliz ekinlarida bu hasharotlar asosan yosh nixollar, ildizi, poya va mevalarini kemirib jiddiy zarar yetkazadi. Bunday holatlar ayniqsa poliz qo'ng'izi, qovun pashshasi va turli tunlamlar ta'sirida kuzatilmoqda. Bundan tashqari hozirgi kunda poliz ekinlarida zararli fitonematodalar o'simlik hosiliga katta zarar yetkazmoqda. Ularning ta'sirida o'simlik qurib qolib, ekin hosili 40-50 foiz, ayrim yillarda esa bundan ham ko'p hosil nobud bo'lmoqda.

Xulosa. Poliz ekinlarida ko'plab zararkunandalar tarqalib, katta zarar keltiradi buning oldini olish uchun, poliz ekinlari ekilgan maydonlarni o'z vaqtida zararkunandalar tur-tarkibi sonini, uchrash darajasini ko'payishini, nazorat qilish shuningdek, zararkunandalarga qarshi agrotexnik tadbirlarni yuqori sifatli qilib o'tkazish, xususan yerga yaxshi ishlov berish, kuzgi shudgorni sifatli qilib, o'tkazish, yaxob suvlarini berish, meneral va maxalliy o'g'itlardan samarali foydalanish, begona o'tlar va o'simlik qoldiqlarini yo'qotish xam zarur tadbirlardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RUYXATI

1. Xo‘jayev SH.T., Xolmurodov E.A.-“Entomologiya, o‘simliklarni zararkunandalardan uyg‘unlashgan himoya qilish, qishloq xo‘jalik ekinlarini himoya qilish va agrotoksikologiya asoslari. Toshkent, “Fan” nashriyoti, 2009.
2. Sh.Xo‘jayev, E.A.Xolmurodov “Entomologiya, qishloq xo‘jalik ekinlarini himoya qilish va agrotoksikologiya” Toshkent. 2014.
3. Murodov S.A., Yeromenko O.V. Hasharotlarning muhim turkumlarini aniqlash. Toshkent, 1984. B. 23..
4. Azimov B.J., Xakimov R.A. – O‘zbekistonda sabzavotchilik, polizchilik, kartoshkachilikning ahvoli, istiqboli va ilmiy izlanishlarning asosiy yo‘nalishlari. Toshkent: 2003.- S.92-95.
5. Oblokulov D.D. Takroriy ekin sifatida ekilgan poliz ekini navlarining o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligi //O‘zbekiston agrar fani xabarnomasi. Toshkent, 2006..11-16.